



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№12



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixojaga o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdulkarimova Dinara Rustamxanovna

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Abdulkarimova Dinara Rustamkhanovna

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....	44
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQUISH.....	48
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
"INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	53
Turayeva Gulizahro	
АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИСЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....	57
Баҳриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли	
KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....	62
G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI.....	67
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich	
INNOVATION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	73
Mustafoev Akbar Mustafo o'g'li	
MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI.....	78
Maxkamov Ibrayim, Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ROLI.....	83
Abduxalilova Laylo To'xtasinovna, Raxmonqulova Shahrizoda	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA YOPIQ SIKL NAZARIYASINING ROLI.....	87
Sodikov Zokir Rustamovich	
YASHIL TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA MOLIVAVIY RAG'BATLAR VA ULARNING NATIJALARI.....	92
Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	97
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	
АНАЛИЗ ПОДХОДОВ ЦЕНТРАЛЬНЫХ БАНКОВ К РЕГУЛИРОВАНИЮ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ ПРОДУКТОВ: СРАВНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКИ.....	101
Даулетиярова Шахло	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ УЗБЕКИСТАНА.....	109
Кадилова Хадича Тураевна	
XORIY MAMLAKATLARINING IQTISODIYOTNI UGLERODSIZLASHTIRISH STRATEGIYALARI: O'ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR.....	115
D.X. Pulatov, F.E.Shamsiyev	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIVASI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	125
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
HISOB SIYOSATI TARKIBIY TUZILISHI MASALALARI.....	133
Botirova Raximaxon Abdujabbarovna	
QURILISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MOLIVAVIY TAHLILI.....	136
Musayeva Shoirazimovna	



KICHIK SANOAT ZONALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH.....	144
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI PORTFELI TAHLILI.....	149
Madraximov Ilxom Kamilovich	
FOYDA SOLIG'INING O'ZIGA XOS MUAMMOLI JIHATLARI.....	154
Zaripov Xusan Baxodirovich	
AGRAR SEKTORNI INNOVATSION MODERNIZATSIYA QILISHDA INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISH MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	159
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	163
Jalilov Jamshid G'anijonovich, Safarov Zavqiddin Zokir o'g'li	
MINTAQA SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	168
Xayitboev Abror Quvondiqovich	
РОЛЬ СМЕШАННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ (BLENDED FINANCE) В ПОВЫШЕНИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ КОММУНАЛЬНЫХ УСЛУГ: УРОКИ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН.....	174
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KORXONALARDA STRATEGIK BOSHQARUV.....	180
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
BANK TIZIMIDA MARKETING AHAMIYATI VA BANK MARKETINGI.....	184
Usubjonov Zaxriddin Vasliddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN XORJIY KREDIT MABLAG'LARINI JALB KILISH HUQUQIY JIHATLARI.....	189
Qulliyev Anvar Zayniddinovich	
TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA CHAKANA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	194
Alimov Umid O'ktambayevich	
MAHSULOTLARNING RAQAMLI PASPORTI TIZIMINI JORIY ETISH OMILLARI VA TO'SIQLARI.....	200
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
KORXONALARDA FOYDA VA ZARARLARNI TAHLIL QILISHDA INNOVATSION METODLAR AHAMIYATI.....	207
Ernazarov Ortiq Eshnazarovich, Farog'at Xo'jabekova	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ БЛАГОСОСТОЯНИЕ, А ТАКЖЕ НОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ.....	212
Останов Эгамберди	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVASION TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYALASH: MOHIYATI VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI.....	218
Xakimova Xulkar Xamidovna	
QORAQALPOG'ISTON VA XORAZM OZIQ-OVQAT SANOATINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI HAMDA UNI YANADA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	224
Tleuov Niyetulla Raxmanovich	
OILAVIY KORXONALARNING IQTISODIY TIZIMDAGI O'RNI.....	230
Shadiyeva Gulnora Mardiyevna, Rustamova Zarina Rustamovna	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATINI MODELLASHTIRISH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARI.....	234
Sadikov Shoxrux Shuxratovich	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA RAQAMLI XIZMATLARNING AHAMIYATI.....	238
Asenbaeva Aydaygul Edenbaevna	
BARQARORLIK VA YASHIL MENEJMENT: ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR VA AMALIY AHAMIYATI.....	242
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	



HUDUDLARNING IQTISODIY SALOHİYATINI INNAVATSION-INVESTITSION BOSHQARISH STRATEGIYASI VA MEXANIZMI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	247
Maqsudova Malohatxon Maqsudovna, Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETINI 2026-YILGI SOLIQ SIYOSATINING TAHLILI VA XALQARO SOLISHTIRMA YONDASHUVI	251
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI	256
Mamataliyeva Dilnoza Raxmonovna	
TRANSFORMATSIYALASHUV SHAROITIDA INVESTITSİYALAR SHAKLLANISHI VA ULARNI SAMARALI BOSHQARISH YO'NALISHLARI	259
To'rayev Jasurali To'rayevich	
O'ZBEKISTONDA SAVDO TASHKILOTLARINING FAOLIYATI VA RIVOJLANISH HOLATI	264
B. Sulaymonov	
NAMANGAN VILOYATIDA "YASHIL IQTISODIYOT" MODELIGA O'TISH JARAYONIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY FAOLLIGI	270
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	274
Xoshimov Pazliddin Zuxurovich	
KICHIK BIZNES ORQALI ISH O'RINLARINI YARATISH STRATEGIYALARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	278
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
MAMLAKATIMIZDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	283
Quryozov Sardorbek Sharifboevich	
РАЗРАБОТКА И ПРИОРИТИЗАЦИЯ КЛЮЧЕВЫХ ИНДИКАТОРОВ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЛЯ ОБЩЕНАЦИОНАЛЬНОЙ ПАНЕЛИ МОНИТОРИНГА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БОЛЬНИЦ: ЭКСПЕРТНАЯ ОЦЕНКА СО СТОРОНЫ РУКОВОДИТЕЛЕЙ МЕДУЧРЕЖДЕНИЙ	290
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYAT ORGANLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHQARISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	297
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	



MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYAT ORGANLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHQARISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li

“O'zkomnazorat” inspeksiyasi Qashqadaryo viloyat hududiy shu'bası boshlig'i

ORCID: 0009-0002-5283-0113

Email: zafargis@umail.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada mahalliy davlat hokimiyat organlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoniga ta'sir etuvchi asosiy omillar tizimli ravishda tahlil qilingan. Tadqiqotda raqamli boshqaruvning nazariy asoslari, mahalliy boshqaruv tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi hamda davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazishning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri yoritiladi. Muallif tomonidan raqamli transformatsiya jarayonlariga ta'sir etuvchi tashkiliy, iqtisodiy, texnologik, institutsional va inson omillari alohida o'rganilib, ularning o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, mahalliy hokimiyat organlarida raqamli boshqaruvni amalga oshirishda kadrlar salohiyati, axborot xavfsizligi, infratuzilma sifati, huquqiy baza va fuqarolarning raqamli savodxonligi muhim omillar sifatida ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: raqamli boshqaruv, mahalliy davlat hokimiyati, raqamli texnologiyalar, raqamli transformatsiya, axborot tizimlari, boshqaruv samaradorligi, inson omili, infratuzilma, innovatsion menejment, axborot xavfsizligi, raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat.

Abstract. This article provides a systematic analysis of the key factors influencing the implementation of digital technologies in the management of local government authorities. The study explores the theoretical foundations of digital governance, the effectiveness of information technology use in local administrative systems, and the socio-economic impact of transforming public services into electronic formats. The author examines organizational, economic, technological, institutional, and human factors affecting digital transformation processes, analyzing their interrelations. Furthermore, the article highlights that human capital, information security, infrastructure quality, legal frameworks, and citizens' digital literacy are crucial elements for ensuring effective digital governance at the local government level.

Key words: digital governance, local government authorities, digital technologies, digital transformation, information systems, management efficiency, human factor, infrastructure, innovation management, information security, digital economy, e-government.

Аннотация. В данной статье системно проанализированы основные факторы, влияющие на процесс внедрения цифровых технологий в управление органами местной государственной власти. В исследовании раскрыты теоретические основы цифрового управления, эффективность использования информационных технологий в системе местного управления, а также социально-экономическое воздействие перевода государственных услуг в электронный формат. Автором отдельно изучены организационные, экономические, технологические, институциональные и человеческие факторы, влияющие на процессы цифровой трансформации, и проведён анализ их взаимосвязи. Кроме того, подчёркивается, что кадровый потенциал, информационная безопасность, качество инфраструктуры, правовая база и цифровая грамотность граждан являются ключевыми факторами успешной реализации цифрового управления в органах местной власти.

Ключевые слова: цифровое управление, местные органы государственной власти, цифровые технологии, цифровая трансформация, информационные системы, эффективность управления, человеческий фактор, инфраструктура, инновационный менеджмент, информационная безопасность, цифровая экономика, электронное правительство.

KIRISH

XXI asrning eng muhim tendensiyalaridan biri – jamiyatning barcha sohalarida raqamli texnologiyalarning jadal joriy etilayotganidir. Raqamli transformatsiya jarayonlari davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, mahalliy davlat hokimiyat



organlari faoliyatida raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi davlat xizmatlari sifatini oshirish, boshqaruvning shaffofligini ta'minlash va fuqarolarga yo'naltirilgan boshqaruv tizimini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda davlat boshqaruvi tizimida raqamli texnologiyalarning o'rni va ahamiyati haqidagi ilmiy izlanishlar dunyo miqyosida jadallashmoqda. Tadqiqotchilar fikricha, raqamli boshqaruv (digital governance) davlatning fuqarolarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, ma'muriy jarayonlarni optimallashtirish va ochiqlikni ta'minlashda eng samarali vositalardan biridir.

Brynjolfsson va McAfee o'zlarining The Second Machine Age asarida raqamli texnologiyalar jamiyatning siyosiy-iqtisodiy tizimini tubdan o'zgartirayotganini ta'kidlab, bu jarayonni "inson faoliyati samaradorligini ko'paytiruvchi raqamli inqilob" deb baholaydilar. Ularning fikricha, raqamli texnologiyalar davlat boshqaruvida an'anaviy byurokratik modellardan tezkor, ochiq va moslashuvchan tizimlarga o'tishni ta'minlaydi.[1]

OECD tomonidan ishlab chiqilgan Digital Government Indexda davlat sektorining raqamli yetuklik darajasi besh asosiy yo'nalish – ochiqlik, innovatsion hamkorlik, fuqarolar ishtiroki, integratsiyalashgan xizmatlar va ma'lumotlar boshqaruvi orqali baholanadi. Ushbu model mahalliy davlat boshqaruvi organlari uchun ham universal mezon sifatida qo'llanilmoqda.[2]

Heeks raqamli texnologiyalarni davlat boshqaruviga joriy etishning muvaffaqiyati "ijtimoiy-texnik tizim" konsepsiyasiga bog'liq ekanini qayd etadi. Unga ko'ra, texnologik infratuzilma, inson kapitali va institutsional muhit bir-biri bilan uyg'un faoliyat yuritmasa, raqamli islohotlar kutilgan natijani bermaydi. Bu yondashuv mahalliy hokimiyatlar uchun ham dolzarb bo'lib, ularning raqamli tayyorgarlik darajasi hududiy imkoniyatlarga bog'liq.

Tapscott esa The Digital Economy asarida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi davlat boshqaruvi tizimida yangi yondashuvlarni – ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish (data-driven decision-making) va raqamli inklyuziyani taqozo etishini ta'kidlaydi. Bu yondashuv, ayniqsa, mahalliy darajada aholining raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish uchun muhimdir.[3]

World Bank tahlillarida raqamli texnologiyalarni joriy etishda beshta asosiy omil ta'kidlanadi: siyosiy irodaviy qo'llab-quvvatlash, infratuzilma tayyorgarligi, inson resurslari salohiyati, ma'lumotlar xavfsizligi va fuqarolarning ishtiroki. Ularning har biri raqamli boshqaruvning muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston olimlari ham so'nggi yillarda raqamli boshqaruv mavzusini chuqur tadqiq etmoqdalar. Jumladan, A. Vahobov "Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish yo'nalishlari" nomli ishida raqamli transformatsiyaning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini tahlil qiladi. Unga ko'ra, raqamli texnologiyalar nafaqat boshqaruv tezkorligini oshiradi, balki budget xarajatlarini optimallashtiradi.[4]

M. Sattorov esa mahalliy davlat boshqaruvida raqamli loyihalarni amalga oshirish jarayonida uchrayotgan muammolarga e'tibor qaratadi. U texnologik infratuzilmaning notekis rivojlanishi, axborot tizimlarining uzviy integratsiya qilinmagani hamda xodimlarning raqamli savodxonlik darajasi pastligi asosiy to'siqlar ekanini ta'kidlaydi.[5]

Sh. Nazarov o'z tadqiqotlarida "inson omili"ni raqamli transformatsiyaning markaziy komponenti sifatida e'tirof etadi. Uning fikricha, mahalliy hokimiyatlarda raqamli boshqaruvning muvaffaqiyati rahbarlarning texnologik fikrlash darajasi va kadrlarning o'zgarishlarga moslashuvchanligiga bog'liq.[6]

Bundan tashqari, Bekmurodov A. raqamli boshqaruv jarayonida innovatsion menejment tamoyillarini qo'llash zarurligini ta'kidlaydi. U boshqaruvda zamonaviy loyiha yondashuvlari (Agile, PRINCE2, PMBOK) orqali raqamli loyihalarning natijadorligini oshirish mumkinligini ilmiy asoslaydi.[7]

Mahalliy kontekstdagi huquqiy bazaga nazar tashlansa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "“Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF–6079-son¹ Farmoni hamda 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF–60-son² Farmoni raqamli texnologiyalarni davlat boshqaruvi jarayoniga tatbiq etishning siyosiy va institutsional asoslarini belgilab berdi. Ushbu hujjatlar raqamli texnologiyalarni joriy etishda davlat organlari, shu jumladan mahalliy hokimiyatlarning mas'uliyatini aniq belgilaydi.[8]

Yevropa va Osiyo davlatlarining ilg'or tajribalari ham bu borada muhim nazariy va amaliy xulosalarni beradi. Masalan, Estoniya tajribasida elektron hukumatning markaziy elementi sifatida "X-Road" tizimi barcha davlat idoralari va fuqarolar o'rtasida xavfsiz ma'lumot almashinuvi imkonini beradi. Janubiy Koreyada esa "Smart City Governance" modeli orqali shahar boshqaruvi real vaqt ma'lumotlariga asoslanib amalga oshiriladi. Bu tajribalar mahalliy hokimiyatlar uchun raqamli boshqaruvni samarali yo'lga qo'yish borasida o'rnak bo'la oladi.

1 <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

2 <https://lex.uz/docs/-5841063>



Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mahalliy davlat hokimiyat organlarini raqamli texnologiyalar asosida boshqarishga ta'sir etuvchi omillar quyidagi guruhlariga bo'linadi. Tashkiliy omillar – boshqaruv strukturasi, mas'uliyat taqsimoti, qarorlar qabul qilish mexanizmi. Texnologik omillar – IT-infratuzilma, platformalar integratsiyasi, texnik ta'minot darajasi. Inson omili – xodimlarning raqamli kompetensiyasi, liderlik sifati, innovatsion fikrlash. Iqtisodiy omillar – moliyaviy resurslar, investitsiya muhitining sifat darajasi. Institutsional omillar – huquqiy asoslar, normativ bazaning to'liqligi va siyosiy qo'llab-quvvatlash.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili raqamli boshqaruvning samaradorligi faqat texnologiyaga emas, balki ushbu omillar o'rtasidagi muvozanat va integratsiya darajasiga bevosita bog'liq ekanini ko'rsatadi. Mahalliy davlat hokimiyat organlari ushbu omillarni chuqur tahlil etgan holda, hududiy sharoitlarga mos raqamli boshqaruv strategiyasini ishlab chiqish orqali raqamli transformatsiyaning barqaror va samarali modelini shakllantirishlari mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot mahalliy davlat hokimiyati organlarida raqamli texnologiyalar asosida boshqaruv samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, baholash va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotda tizimli tahlil, raqamli boshqaruv nazariyalari, empirik ma'lumotlar, iqtisodiy-statistik va modellashtirish metodlari uyg'un holda qo'llaniladi. Tadqiqot metodologiyasi mahalliy davlat hokimiyatining raqamli texnologiyalar asosida faoliyat yuritishiga ta'sir qiluvchi omillarni tizimli ravishda aniqlash, o'lchash, solishtirish, modellashtirish va baholash imkonini beradi.

Bu metodik yondashuv raqamli transformatsiya jarayonining real holatini ochib berish, siyosiy va tashkiliy qarorlar uchun ilmiy asos yaratish hamda raqamli boshqaruvni takomillashtirishga xizmat qiladi. Raqamli boshqaruvga o'tish nafaqat texnik jarayon, balki boshqaruv falsafasini o'zgartirish, yangi yondashuvlarni joriy etish va inson kapitaliga asoslangan boshqaruv modelini shakllantirishni ham talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, raqamli texnologiyalarni mahalliy hokimiyat organlari faoliyatiga tatbiq etishda ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ularni tizimli ravishda tahlil qilish va samarali boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida raqamli iqtisodiyot va raqamli boshqaruvni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda³. Mazkur strategiyaning asosiy maqsadi – davlat organlari faoliyatini avtomatlashtirish, ma'lumotlar almashinuvini yagona platformaga o'tkazish, fuqarolarga qulay va tezkor elektron xizmatlar ko'rsatish hamda boshqaruv qarorlarini data-driven (ma'lumotlarga asoslangan) shaklda qabul qilish tizimini joriy etishdir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli boshqaruv tizimining muvaffaqiyati ko'p omilli jarayon bo'lib, u tashkiliy, texnologik, iqtisodiy, institutsional va inson omillarining uyg'un faoliyatiga bog'liq. Har bir omil o'z navbatida boshqaruv samaradorligi, davlat xizmatlari sifati va ijtimoiy ishonch darajasiga bevosita ta'sir etadi. Masalan, tashkiliy omillar — hokimliklarning ichki boshqaruv strukturalari va mas'uliyat taqsimoti; texnologik omillar — IT-infratuzilma, ma'lumotlar xavfsizligi va texnik resurslar darajasi; inson omili esa raqamli kompetensiyalar, liderlik sifati va xodimlarning yangilikka tayyorgarligini ifodalaydi.

Bundan tashqari, iqtisodiy va institutsional omillar ham jarayonning barqarorligini belgilovchi muhim ko'rsatkichlardir. Raqamli transformatsiya katta moliyaviy resurslarni talab qiladi, shu bois hududiy budjetlar imkoniyatlari va investitsiya muhitining sifat darajasi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Mahalliy hokimiyatlarda raqamli boshqaruv tizimlarini rivojlantirishda xalqaro tajriba ham muhim o'rin tutadi. Xususan, Estoniya, Janubiy Koreya, Finlyandiya va Singapur kabi davlatlar davlat boshqaruvini to'liq raqamlashtirish orqali yuqori samaradorlikka erishgan. Bu davlatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyati faqat texnologiyaga emas, balki inson omili va boshqaruv madaniyatiga ham bog'liq.

O'zbekiston sharoitida raqamli texnologiyalarni joriy etish borasida dastlabki natijalar shakllanib, hududlar kesimida boshqaruv tizimlarining raqamli tayyorgarlik darajasi turlicha ekanligi kuzatilmoqda. Bu holat mavjud vaziyatni chuqur tahlil qilish, omillar o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlarini aniqlash hamda mahalliy sharoitlarga mos, moslashuvchan va barqaror raqamli boshqaruv modelini ishlab chiqish istiqbolini belgilab bermoqda. Tadqiqot aynan shu jarayonlarni ilmiy asosda o'rganishga, raqamli texnologiyalarni mahalliy davlat boshqaruviga samarali integratsiya qilishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashga va boshqaruv sifatini oshiruvchi metodik takliflarni ishlab chiqishga qaratilgan.

3 <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>



Natijalar raqamli transformatsiya mahalliy boshqaruvda ko'p omilli mexanizm tarzida shakllanishini ko'rsatadi. Tashkiliy, texnologik, inson resurslari, iqtisodiy va institutsional omillar bir-birini to'ldirib boruvchi yagona tizim sifatida namoyon bo'ladi. Har bir omilning sifatli rivojlanishi boshqaruv jarayonlarining umumiy samaradorligini oshiradi, shu bois ularning uyg'unlashtirilgan holda rivojlanishi raqamli boshqaruvning keyingi bosqichlari uchun metodik asos yaratadi.

Tashkiliy omillar bo'yicha mavjud tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamli boshqaruv mexanizmlarining shakllanish jarayoni izchil ravishda rivojlanmoqda. Ayrim tumanlarda raqamli bo'limlar faoliyat yuritayotgani keyingi bosqichlarda strategik koordinatsiyani kuchaytirish uchun qulay sharoit yaratadi. Raqamli loyihalarni markazlashgan tartibda rejalashtirish, monitoring qilish va baholash imkonini beruvchi "raqamli boshqaruv idorasi"ni joriy etish ushbu yo'nalishdagi tizimligi yanada mustahkamlaydi va raqamli islohotlarning barqaror davom etishini prognoz qiladi.

Texnologik omillar bo'yicha mavjud infratuzilma keyingi bosqichda modernizatsiya uchun yetarli asos yaratmoqda. Hududlarda internet sifati, ma'lumotlar bazalari, integratsion platformalar darajasidagi farqlar bosqichma-bosqich bartaraf etilishi uchun yo'l xaritasini shakllantirishga imkon beradi. Bulutli texnologiyalarni joriy etish, AI asosidagi tahliliy modullarni kengaytirish va yagona "Raqamli integratsiya platformasi"ni yaratish mahalliy boshqaruv jarayonlarida real vaqt rejimida qaror qabul qilish amaliyotini mustahkamlashi prognoz qilinadi.

Inson omili raqamli transformatsiyaning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida baholandi. Xodimlarning raqamli kompetensiyasini oshirish zarurati malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlarini tizimli yo'lga qo'yish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Tadqiqot davomida respondentlarning 62 foizi raqamli tizimlarda o'zini to'liq tayyor deb hisoblamaganini bildirgani, kelgusida upskilling va reskilling dasturlarini kengaytirish metodikasini ishlab chiqish uchun asos bo'ladi. Raqamli liderlikni rivojlantirish esa qaror qabul qilishning tezligi va sifatini oshirishda strategik omil sifatida ko'riladi.

Iqtisodiy omillar bo'yicha mahalliy darajada raqamli loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish istiqbollari mavjud. Markazlashgan dasturlar bilan bir qatorda davlat-xususiy sheriklik modelini keng qo'llash innovatsion IT-loyihalarning tezkor moliyalashtirilishini ta'minlaydi. Xususiy sektorni jalb qilish texnologik xizmatlar sifatini oshirishi va loyihalar tezligini sezilarli darajada kuchaytirishi prognoz qilinmoqda. Mahalliy IT-startaplarni qo'llab-quvvatlash esa raqamli ekotizimning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Institutsional va huquqiy omillar bo'yicha "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi mahalliy darajada normativ asoslarni takomillashtirish uchun mustahkam platforma yaratmoqda. Tahlillar mahalliy hokimiyatlar uchun raqamli boshqaruv reglamentini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdi. Axborot tizimlari standartlari, ma'lumotlar xavfsizligi, elektron hujjat aylanishi va xizmatlar monitoringini belgilovchi bunday reglament boshqaruv jarayonlarini yanada aniq, shaffof va samarali bo'lishiga xizmat qilishi prognoz qilinadi. Bu esa jamoatchilik ishonchining ortishiga va raqamli boshqaruvning sifat yuksalishiga olib keladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar mahalliy davlat boshqaruvini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi, biroq bu jarayonni faqat texnik jihatdan emas, balki sotsiotsistemali yondashuv asosida boshqarish talab etiladi. Texnologik infratuzilma jarayonning asosi bo'lsa-da, uni samarali ishlatish uchun inson kapitali va boshqaruv madaniyati muhim ahamiyatga ega. Inson omili — raqamli tafakkur, raqamli savodxonlik va o'zgarishlarga moslashuvchanlik — raqamli islohotlarning yuragi hisoblanadi. Iqtisodiy va institutsional asos esa loyihalarning barqarorligini belgilaydi hamda mahalliy sharoitda raqamli rivojlanishning moliyaviy poydevorini mustahkamlaydi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni boshqaruv jarayonlariga chuqur integratsiya qilgan tuman va shahar hokimliklarida qaror qabul qilish tezligi 25–30% ga, fuqarolar murojaatlariga javob berish samaradorligi 40% ga, xizmat ko'rsatish xarajatlari esa 20% gacha qisqargani kuzatilgan. Bu holat raqamli boshqaruvning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi. Raqamli texnologiyalarni mahalliy davlat hokimiyat organlarida muvaffaqiyatli joriy etish uchun tizimli yondashuv zarur. Tashkiliy jihatdan — raqamli boshqaruv uchun maxsus bo'lim va reglamentlar yaratish; texnologik jihatdan — yagona integratsiya platformasini yo'lga qo'yish; inson kapitali jihatidan — raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish; iqtisodiy jihatdan — davlat-xususiy sheriklik orqali barqaror moliyalashtirish; institutsional jihatdan — huquqiy bazani to'liq shakllantirish talab etiladi.

Bunday yondashuv orqali mahalliy boshqaruv tizimi nafaqat zamonaviy axborot texnologiyalariga moslashadi, balki "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasining asosiy maqsadlari — ochiqlik, shaffoflik va samaradorlikka erishadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Asosiy xulosalar quyidagilardan iborat. Tashkiliy omillar raqamli transformatsiyaning boshqaruv mexanizmini belgilaydi. Mahalliy hokimiyatlarda raqamli boshqaruv uchun maxsus tuzilmalarning yetishmasligi loyihalarning uzluksizligini pasaytiradi. Shu sababli har bir hokimlik doirasida raqamli boshqaruvni rejalashtiruvchi va



muvofiglashtiruvchi bo'linmalar zarur. Texnologik infratuzilmaning holati raqamli loyihalarning tezkorligini belgilovchi asosiy omildir. Infratuzilma yetishmovchiligi, internet tezligining pastligi va tizimlar o'rtasidagi integratsiyaning sustligi natijadorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Inson omili raqamli boshqaruvning markazida turadi. Xodimlarning raqamli kompetensiyalari, innovatsion tafakkuri va texnologiyalarga moslashuvchanligi jarayonni tezlashtiruvchi yoki sekinlashtiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiy omillar, xususan moliyaviy resurslar yetishmovchiligi raqamli islohotlarning keng ko'lamli joriy etilishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli barqaror moliyalashtirish manbalarini, xususan davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmlarini rivojlantirish zarur. Institutsional omillar — huquqiy baza, strategik hujjatlar va siyosiy qo'llab-quvvatlash — raqamli boshqaruvning huquqiy poydevorini belgilaydi. Hozirgi normativ-huquqiy asoslar modernizatsiya jarayonini boshlang'ich bosqichda qo'llab-quvvatlamogda, biroq mahalliy darajada maxsus reglament va metodik ko'rsatmalarga ehtiyoj mavjud.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni samarali joriy etgan hokimliklarda xizmat ko'rsatish sifati oshgan, fuqarolar murojaatlarining qayta ishlanish muddati qisqargan va boshqaruv qarorlari real vaqt rejimida qabul qilinmoqda. Demak, raqamli texnologiyalarni keng ko'lamda joriy etish mahalliy boshqaruv tizimini samarador, ochiq va ijtimoiy yo'naltirilgan tizimga aylantiradi. O'zbekiston Respublikasining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" doirasida mahalliy boshqaruvni raqamli asosda takomillashtirish uchun quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi.

Iqtisodiy va moliyaviy mexanizmlarni mustahkamlash. Mahalliy boshqaruvda raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun "Raqamli infratuzilma fondi"ni tashkil etish; xususiy IT-kompaniyalarni davlat bilan hamkorlikda loyihalarda ishtirok etishga jalb qilish; xarajatlarni kamaytirish va resurslarni optimallashtirish maqsadida Agile va Lean Management tamoyillarini qo'llash.

Institutsional va huquqiy islohotlar. Mahalliy hokimiyat organlari faoliyatida raqamli boshqaruv jarayonlarini tartibga soluvchi maxsus reglament ishlab chiqish; axborot xavfsizligi bo'yicha xalqaro standartlar (ISO/IEC 27001:2022) asosida mahalliy me'yoriy hujjatlar yaratish; mahalliy boshqaruvdagi raqamli loyihalarni baholash uchun ko'rsatkichlar tizimi (KPI)ni joriy etish.

Aholi ishtirokini kengaytirish. Fuqarolar murojaatlari va takliflarini raqamli shaklda qabul qiluvchi "Virtual Hokim" platformasini ishga tushirish; aholining raqamli savodxonligini oshirish bo'yicha "Smart Mahalla" loyihalarini amalga oshirish; davlat xizmatlari sifatini baholashda aholining onlayn reyting tizimi (feedback-based evaluation)ni joriy etish.

Raqamli texnologiyalarni mahalliy davlat hokimiyat organlari boshqaruv tizimiga chuqur integratsiya qilish natijasida boshqaruv qarorlari tezligi va aniqligi oshadi, davlat xizmatlarining ochiqligi va shaffofligi ta'minlanadi, fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchi mustahkamlanadi, byurokratik to'siqlar kamayadi va samaradorlik ko'rsatkichlari ortadi. Demak, raqamli texnologiyalar nafaqat boshqaruvning texnik vositasi, balki mahalliy boshqaruv madaniyatini o'zgartiruvchi strategik omil sifatida qaralishi lozim. U orqali davlat boshqaruvi tizimi inson kapitali va innovatsion tafakkurga asoslangan yangi sifat bosqichiga ko'tariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Brynjolfsson, E., McAfee, A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. – New York: W.W. Norton & Company, 2014. – 306 p.
2. OECD. Digital Government Index 2020: Going Digital in the Public Sector. – Paris: OECD Publishing, 2020. – DOI:10.1787/4de9f5bb-en.
3. Heeks, R. Information and Communication Technology for Development (ICT4D): Data, Devices, and the Digital Divide. – London: Routledge, 2018. – 400 p.
4. Tapscott, D. The Digital Economy: Rethinking Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. – New York: McGraw-Hill Education, 2015. – 432 p.
5. World Bank. Digital Transformation in the Public Sector: Pathways to Effective Implementation. – Washington D.C.: The World Bank Group, 2022. – 84 p.
6. United Nations. E-Government Survey 2022: The Future of Digital Government. – New York: UN Department of Economic and Social Affairs, 2022. – 176 p.
7. Axelos Global Best Practice. Managing Successful Projects with PRINCE2. – 6th Edition. – London: The Stationery Office, 2017. – 398 p.
8. Project Management Institute. A Guide to the Project Management Body of Knowledge (PMBOK Guide). – 7th Edition. – Pennsylvania, USA: PMI, 2021. – 370 p.
9. Gartner Group. Top 10 Government Technology Trends for 2022: Leading the Next Phase of Digital Government. – Gartner Research, 2022.
10. Vahobov, A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish yo'nalishlari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" jurnali. – 2021. – №2. – B. 30–38.
11. Sattorov, M. Mahalliy davlat boshqaruvida raqamli transformatsiya jarayonlarining amaliy jihatlari. // "Public Administration and E-Governance" jurnali. – 2022. – №3. – B. 15–25.



12. Nazarov, Sh. Davlat boshqaruvida inson omilining raqamli transformatsiyadagi o'rni. // "O'zbekiston ijtimoiy fanlari axborotnomasi". – 2020. – №4. – B. 45–52.
13. Bekmurodov, A., Usmonova, D. Davlat boshqaruvi tizimida innovatsion menejment asoslari. – Toshkent: TDIU nashriyoti, 2020. – 210 b.
14. Karimov, A., Sodiqov, B. Hududiy boshqaruv tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari. // "Innovatsion boshqaruv" jurnali. – 2021. – №1. – B. 58–66.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "“Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF–6079-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF–60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>
17. Raqamli hukumatni rivojlantirish konsepsiyasi. – O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. – Toshkent, 2021.
18. ISO/IEC 27001:2022. Information Security Management Systems Requirements. – International Organization for Standardization. – Geneva, 2022.
19. Hasanov, I. Mahalliy hokimiyatlarda axborot tizimlarini joriy etishning tashkiliy omillari. // "Iqtisodiyot va boshqaruv" jurnali. – 2021. – №5. – B. 27–33.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
